

**YOSH TADQIQOTCHILAR UCHUN ENG SAMARALI YONDASHUV :  
HAMKORLIKDA IZLANISHMI YOKI INDIVIDUAL ISH USLUBIMI?**

**Yuldasheva Muxlisa Baxromjon qizi**  
**Termiz davlat universiteti magistranti**  
**UO'K: 001.891:005.336.2**

**Annotatsoya:** Ushbu maqola akademik muhitda individual va hamkorlikdagi tadqiqotchilarning afzalliklari hamda kamchiliklarini qiyosiy tahlil qiladi va har bir yondashuvning ilmiy samaradorlik hamda kasbiy rivojlanishga ta'sirini yoritadi. Unda ilmiy izlanish kontekstida "hamkorlik" va "individual yutuq" tushunchalarini aniqlab, aksar olimlar mustaqillik va jamoaviylik o'rtasidagi spektrda faoliyat yuritishi ta'kidlanadi. Maqolada hamkorlikdagi tadqiqotlarning afzalliklari - masalan, fanlararo almashinuv, tajriba ulashish va tadqiqot ta'sirini kengaytirish - bilan bir qatorda, mualliflikga oid tortishuvlar, sekin ishlash jarayoni hamda individual tan olinmaslik kabi muammolar ham ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek individual tadqiqotning ijodiy nazorat, ko'nikmalarni rivojlantirish va aniq mualliflik kabi ustun jihatlari tahlil qilinadi, biroq uning kamchiliklari - yakkalanish va natijalarga to'liq javobgarlik - ham e'tibordan chetda qolmaydi. Maqola, shuningdek turli tadqiqot yondashuvlarini tadqiqot maqolalari turlari bilan bog'lab, analitik, argumentativ va keys-stadi turlarini individual ish uchun, tizimli va jarayoniy sharhlarni esa jamoaviy ish uchun tavsiya etadi. Umuman olganda, maqola samarali va ma'noliy ilmiy natijalarga erishishi uchun tadqiqot turini shahsiy maqsadlar, fan sohasi hamda loyiha miqyosiga moslashtirish zarurligini takidlaydi.

**Kalit so'zlar:** hamkorlik; individual tadqiqot; ilmiy samaradorlik; jamoaviy ish; mualliflik; tadqiqot metodologiyasi; fanlararo tadqiqot; mustaqillik; innovatsiya; tadqiqot turlari; akademik rivojlanish.

**Юлдашева Мухлиса Бахромжоновна,**  
**магистрант Термезского государственного университета**  
**УДК: 001.891:005.336.2**

**КАКОЙ ПОДХОД ЯВЛЯЕТСЯ НАИБОЛЕЕ ЭФФЕКТИВНЫМ ДЛЯ МОЛОДЫХ  
ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ: КОЛЛЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ИЛИ  
ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ СТИЛЬ РАБОТЫ?**

**Аннотация:** В статье рассматриваются сравнительные преимущества и недостатки индивидуальных и коллективных исследований в академической среде, с акцентом на то, как каждый из этих подходов влияет на научную продуктивность и профессиональное развитие исследователя. Определяются понятия сотрудничества и индивидуальных достижений в контексте научной деятельности, при этом отмечается, что большинство учёных работают в диапазоне между независимостью и командной работой. В статье обсуждаются преимущества совместных исследований — таких как междисциплинарный обмен, объединение опыта и повышение исследовательского влияния, — наряду с трудностями, включая споры об авторстве, более медленные процессы и возможную утрату личного признания. Также рассматриваются индивидуальные исследования, подчёркиваются их преимущества — творческий контроль, развитие профессиональных навыков и чёткое авторство, — а также недостатки, такие как изоляция и полная ответственность за

результаты. Кроме того, статья связывает эти формы исследовательской деятельности с соответствующими типами научных работ, рекомендуя аналитические, аргументативные и кейс-стади статьи для индивидуальной работы, а систематические обзоры и процессные статьи — для коллективных проектов. В целом подчёркивается важность согласования типа исследования с личными целями, нормами дисциплины и масштабом проекта для достижения эффективных и значимых академических результатов.

**Ключевые слова:** сотрудничество; индивидуальные исследования; академическая продуктивность; командная работа; авторство; исследовательская методология; междисциплинарные исследования; автономия; инновации; типы научных работ; академическое развитие.

**Muxlisa Yuldasheva, daughter of Baxromjon,**

**Master's Student at Termez State University**

**UO•K: 001.891:005.336.2**

### **WHICH APPROACH IS MOST EFFECTIVE FOR YOUNG RESEARCHERS: COLLABORATIVE RESEARCH OR AN INDIVIDUAL WORKING STYLE?**

**Annotation:** This article explores the comparative advantages and disadvantages of individual and collaborative research within academic settings, emphasizing how each approach influences scholarly productivity and career development. It defines collaboration and individual achievement in the context of research, noting that most scholars operate along a spectrum between independence and teamwork. The paper discusses the benefits of collaboration—such as interdisciplinary exchange, shared expertise, and increased research impact—while acknowledging challenges like authorship disputes, slower processes, and potential loss of individual recognition. Likewise, it examines individual research, highlighting its advantages in creative control, skill development, and clear authorship credit, along with its drawbacks, including isolation and full accountability for outcomes. The article also connects these research modes to suitable paper types, recommending analytical, argumentative, and case study papers for individual work, and systematic reviews or process papers for collaborative projects. Overall, it underscores the importance of aligning research type with personal goals, disciplinary norms, and project scale to achieve effective and meaningful academic outcomes.

**Key words:** collaboration; individual research; academic productivity; teamwork; authorship; research methodology; interdisciplinary studies; autonomy; innovation; research paper types; academic development.

#### **Kirish**

Akademiya ham individual yutuqlar, ham muassasa taraqqiyoti asosan ilmiy tadqiqotlar natijasiga bog'liq. Individual yoki jamoaviy tadqiqotlardan qaysi biri yuqoridagi samaradorlikni taminlashi masalasi akademik amaliyotda eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biridir. Har bir yondashuvning afzalliklari va kamchiliklarini tushunish muvaffaqiyatli akademik rivojlanish uchun muhimdir, garchi yakuniy tanlov shaxsiy xususiyaylar, fan sohasi me'yorlari va ilmiy martaba bosqichlariga bog'liq bo'lsa-da. Mustaqil tadqiqot nazariy yo'nalishlar, gumanitar fanlar va yonaga qarashni talab etuvchi ishlar uchun eng qulay bo'lib, u mustaqillik, ijodkorlik va fikr chuqurligini taminlaydi. Aksincha hamkorlikdagi tadqiqotlar fanlararo integratsiyani, keng bilimlar bazasiga kirish imkonini va resurs almashinuvini taminlaydi- bular esa keng ko'lamlı empirik tadqiqotlar hamda innovatsiyaga asoslangan sohalar uchun juda zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayniqsa

bir nechta universitetlar yoki fan yo'nalishlari o'rtasidagi hamkorlik natijalari odatda yuqori iqtibos darajasi va kengroq ta'sir doirasini taminlaydi. Ushbu maqola qaysi turdagi tadqiqotlarni yakka holda va qaysilarini jamoaviy tarzda olib borish eng samarali ekanini tahlil qiladi.

### **Adabiyotlar tahlili**

So'nggi yillarda individual va hamkorlik tadqiqotlari o'rtasidagi muvozanat masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Tadqiqotchilar bu yondashuvlarning ilmiy samaradorlik, ijodkorlik va innovatsiya ta'sirini turli jihatdan tahlil qilganlar. Amerikalik olimlar Katz va Martin (1997) o'z tadqiqotlarida ilmiy hamkorlikning mazmuni va afzalliklarini ochib bergan bo'lib, jamoaviy ish mahsuldorlikni oshirishi bilan birga mualliflik masalalarini murakkablashtirishi mumkinligini ta'kidlaganlar. Bozeman va Corley (2004) esa o'zlarining "Scientists' collaboration strategies : implications for scientific and technical human capital" maqolasida hamkorlik tadqiqotchilarning texnik ko'nikmalari va ilmiy tarmoqdagi nufuzini mustahkamlashini qayd etgan. Shu bilan birga, bir qator tadqiqotlar individual izlanishlarning o'ziga hos afzalliklarini ko'rsatadi. Hollis (2001) yakka holda ishlash ijodiy nazoratni ta'minlashini va mualliflik erkinligini oshirishini takidlagan. Shuningdek, Melin (2004) yil o'zining "Pragmatism and Self-organization: Research Collaboration on the Individual Level" maqolasida tadqiqotchilar odatda mustaqillik va hamkorlikni birlashtirishga intilishini, bunday yondashuv ilmiy natijalarni yanada boyitishini ko'rsatgan.

Ushbu tadqiqotlar tahlili shuni anglatadiki, individual va jamoaviy izlanishlar bir birini to'lsiradigan jarayonlardir: mustaqil ish ijodkorlik va chuqur tahlilni kuchaytirsa, hamkorlik fanlararo integratsiya va ilmiy ta'sir doirasini kengaytiradi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu maqola individual va hamkorlikdagi tadqiqot yondoshuvlarining afzalliklarining va kamchiliklarini nazariy tahlil asosida o'rganadi. Tadqiqot dahomida horijiy va mahalliy manbalar tahlil qilinib, ilmiy adabiyotlar solishtiriladi. Maqola tayyorlanish jarayonida solishtiruvchi va kontent tahlil usullaridan foydalaniladi hamda mavjud yondashuvlar asosida umumiy xulosalar chiqariladi.

### **Tahlillar va natijalar**

Ushbu maqolada ilgari surilgan fikrlarni aniq tushuntirish uchun ilmiy tadqiqot va akademik faoliyat kontekstida "hamkorlik" va "individual yutuq" tushunchalariga aniqlik kiritish zarur. Ushbu ta'riflar aynan shu muhokama doirasida ishlatiladi va bu atamalarning boshqa holatlardagi barcha ma'nolarini qamrab olishni maqsad qilmaydi. Maqolada hamkorlik — umumiy maqsad yoki tadqiqot natijasiga erishish uchun guruhda olib boriladigan ilmiy yoki kasbiy faoliyat sifatida belgilanadi. Turli nuqtai nazarlar va mutaxassisliklarni birlashtirish ishning kengligi, chuqurligi va ta'sirini oshirishi mumkinligi sababli, hamkorlik qiluvchi olimlar individual intilishlar va o'zaro o'sish o'rtasida muvozanat saqlashga intiladilar. Ushbu ma'noda hamkorlik o'zaro ishonch, umumiy javobgarlik va jamoaviy natijaga egalikni o'z ichiga oladi. U murakkab yoki transdisiplinar maqsadlarga erishish uchun muloqot, hamkorlik va kelishuvni zarur vosita sifatida ko'radi.

Individual yutuq esa o'z tashabbusi, aql-zakovati va intizomi orqali ilmiy maqsadlarga erishishni anglatadi. Bu yondashuvda asosiy urg'u shaxsiy ijodkorlik, mustaqillik va e'tirofqa qaratiladi. Mustaqil olim odatda erkinlikni afzal ko'radi, o'z tadqiqot maqsadlarini belgilaydi va natijalarni mustaqil baholaydi. Garchi bu usul ijodkorlik va nozik tahlilni rivojlantirsa-da, u raqobat ruhini ham kuchaytirib, individual muvaffaqiyatni jamoaviy yutuqdan ustun qo'yishi mumkin.

Shuni unutmash kerakki, bu ta'riflar akademik amaliyotdagi ikki qarama-qarshi yo'nalishni tushuntiruvchi idealizatsiyalangan modellardir. Aksariyat olimlar aslida mustaqillik va jamoaviylikning turli darajalarida faoliyat yuritadilar. Xuddi jamoaviy tadqiqotchilar jamoa ichida o'z shaxsiyatini saqlaganidek, ko'plab mustaqil olimlar ham raqobat ruhida ishlash bilan birga hamkorlikni rad etmaydilar. Ushbu farqlarni ko'rsatish maqolaning keyingi qismida har ikki tadqiqot yondashuvining afzalliklari va muammolarini tizimli tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Tadqiqot va ta'limda hamkorlik yangi narsa emas; ko'plab ilmiy maqolalar jamoaviy mualliflik asosida yaratiladi. Hamkorlik yangi g'oyalar, yondashuvlar va qarashlarni kashf etishga yordam beradi, ayniqsa yangi doktorantlar uchun foydali bo'lib, ular tajribali olimlarning ko'rsatmalaridan tashqari bilimlarga ega bo'lish imkoniga ega bo'ladi. Tajribali olimlar ham bu jarayon orqali yangi nuqtai nazarlarni kashf etadi va fanlararo aloqalarni mustahkamlaydi, tadqiqotchilar esa o'z sohasida "ichki mutaxassis" sifatida ko'nikmalarini oshiradi. Jamoaviy ishlar ko'p sonli ma'lumotlarni yig'ish va tadqiqotlar uchun barqaror poydevor yaratishga yordam beradi, shuningdek, ijobiy muhit va professional aloqalarni mustahkamlash hamda talabalar tadqiqotini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu bilan birga, hamkorlik ba'zan haddan tashqari ixtisoslashuv, anonimlik va mualliflik masalalarida nizolarni keltirib chiqarishi, jarayonni sekinlashtirishi va samaradorlikni pasaytirishi mumkin.

Yakka holda tadqiqot esa mustaqil muvaffaqiyatga asoslanadi; muallif barcha qarorlarni o'z zimmasiga oladi, tadqiqot yo'nalishini erkin belgilaydi va ish sifatini mustaqil namoyish eta oladi. Bu uslub olimni har bir tadqiqot bosqichida rivojlantiradi va ilmiy martabasini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, yakka ishlash to'liq javobgarlikni talab qiladi, xatolar faqat muallifga tegishli bo'ladi va olimni jamoadan ajratib, professional aloqalarni cheklashi mumkin. Mustaqil tadqiqotchining barcha jarayonlarni yakka o'zi bajarishi murakkab bo'lib, ba'zida "hamma narsadan ozgina biladigan, lekin hech birida yetuk bo'lmagan" holatga olib kelishi mumkin, ayniqsa yangi olimlar uchun bu qiyinchilik tug'diradi.

Tadqiqotchining maqsadi va soha xususiyati tadqiqot maqolasi turini tanlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Analitik va argumentativ maqolalar mustaqil tadqiqotchilar uchun qulay bo'lib, mavzuni chuqur tahlil qilish yoki aniq pozitsiyani himoya qilish imkonini beradi. Adabiyot sharhi va keystadi maqolalari mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish yoki muayyan hodisani batafsil tahlil qilish uchun mos keladi. Eksperimental maqolalar esa ilmiy sohalarda keng qo'llanilib, nazorat ostidagi tajribalar natijalarini taqdim etadi. Shu bilan birga, yangi yoki kam o'rganilgan mavzularni yorituvchi izlanishlar uchun eksplorativ (izlanuvchan) maqolalar samarali hisoblanadi.

Boshqa tomondan, hamkorlikdagi tadqiqotlar jamoaviy mualliflikni talab qiluvchi maqola turlarini afzal ko'radi. Masalan, tizimli va keng qamrovli sharhlar katta hajmdagi ma'lumotni yig'ish va tahlil qilishda birgalikda ishlashni talab etadi. Jarayoniy yoki tavsifiy maqolalar esa turli mualliflarning tajribalari va metodologik qarashlarini birlashtirish imkonini beradi. Keng ko'lamli ilmiy loyihalar asosida yaratilgan ko'p muallifli maqolalar esa tadqiqotning chuqurligi va kengligini oshirishda turli mutaxassisliklarning o'zaro boyituvchi rolini ko'rsatadi

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, garchi ilmiy tadqiqotning individual yoki hamkorlikdagi turini tanlash tadqiqotchining o'z ixtiyorida bo'lsada, yosh tadqiqotchilarning o'ziga hos ijodkorligi, ularning izlanish jarayonida o'ziga xos bo'lgan yondashuvlardan foydalanish

qobiliyati, ularning yaratuvchanlik darajasini ko'rsatib berishda individual tadqiqot usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, bu ularga o'z ishlariga to'laqonli egalik qilish va tadqiqot va ilmiy izlanishlar olamida o'zligini namoyish qilishda yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozeman, B., & Corley, E. (2004). Scientists' collaboration strategies: Implications for scientific and technical human capital. *Research Policy*, 33(4), 599–616. <https://doi.org/10.1016/j.respol.2004.01.008>
2. Lee, S., & Bozeman, B. (2005). The impact of research collaboration on scientific productivity. *Social Studies of Science*, 35(5), 673–702. <https://doi.org/10.1177/0306312705052359>
3. Melin, G. (2000). Pragmatism and self-organization: Research collaboration on the individual level. *Research Policy*, 29(1), 31–40. [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(99\)00031-1](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00031-1)
4. Hollis, M. (2001). *The philosophy of social science: An introduction*. Cambridge University Press.
5. Katz, J. S., & Martin, B. R. (1997). What is research collaboration? *Research Policy*, 26(1), 1–18. [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(96\)00917-1](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(96)00917-1)